

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning viloyatimizga qilgan tashriflari davomida belgilangan vazifalar ijrosi aholi orasida targ'ib qilindi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning viloyatimizga qilgan tashriflari davomida belgilangan vazifalar ijrosi aholi orasida targ'ib qilindi. Bugun, 11 iyun kuni shahar hududidagi San'at saroyi binosida Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning joriy yil 1-2-iyun kunlarida Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida belgilangan vazifalar, dasturlar va boshqa masalalar bo'yicha viloyat Kengashining 2021 yil 4 iyundagi №09-01/380-soni topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida belgilab berilgan ish-reja asosida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari tomonidan targ'ibot-tashviqot tadbiri tashkil etildi. Mazkur tadbirga shahardagi deputatlar, mahalla faollari, nuroniy otaxonlar, yoshlar, ayollar hamda keng jamoatchilik vakillari jalg qilinib, 260 nafar kishi qamrab olindi. Tadbirni Termiz shahar 4-sektor rahbari, shahar Davlat soliq inspeksiysi boshlig'i Xudayberdiev Madamin Amanovich olib berdi. Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, "Yuksalish" umummiliy harakati viloyat bo'linmasi rahbari Qobulova Mavluda Umarjonovna tomonidan Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda belgilangan vazifalar xususida ma'ruza qilindi. Tadbirda "Ayollar", "Yoshlar" va "Temir" daftarlari kiritilgan oilalar bilan olib boriladigan vazifalar bo'yicha Termiz shahridagi 4-sektor mas'ul kotibi Muxamadiev Nurali Raxmatovichning ma'rzasini tinglandi. Ochiq muloqot jarayonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Yig'ilish yakunida yig'ilganlar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishib, tegishli javoblarni olishdi. Targ'ibot tadbiri juda ko'tarinki, qizg'in tarzda o'tdi.

